O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

№ 2 (16408)
2021-YIL
10-FEVRAL,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

***Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida joriy yilning 9-fevral kuni ulug' mutafakkir shoir bobomiz tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Ma'naviyatga, ilm-fanga, ma'rifat va adabiyotga, kitobxonlikka ko'rsatilayotgan e'tibor Alisher Navoiy merosini o'rganish, uni xalqqa yanada yaqinlashtirishdek ezgu tashabbuslarda ham o'z ifodasini topayotir.***



O'zA

# ULUG' SHOIR TAVALLUD KUNI KENG NISHONLANDI

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid mamlakatimizda keyingi yillarda Alisher Navoiy merosini o'rganish yanada kengroq quloch yoyganini ta'kidladi. Tantanali tadbirda Afg'oniston Islom Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Ahmad Holid Elmiy Alisher Navoiy o'zining o'lmas asarlari, ularda tarannum etilgan ezgu g'oyalar bilan nainki o'zbek xalqi, balki butun dunyo xalqlariga taalluqli bo'lgan benazir shoir, ulug' mutafakkir ekanini ta'kidladi.

Tadbirda xorijlik navoiyshunos olimlar ham o'z fikr-mulohazalarini masofaviy tarzda bildirish imkoniga ega bo'ldi.

Tadbir ishtirokchilari, jumladan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi jamoasi ham Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qo'ydi.



## Imkoniyat va imtiyozlar:

# HAMMA UCHUN VA HAR DOIM

MUNOSABAT

***Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati yil sayin takomillashib, yangicha mazmun-mohiyat kasb etib bormoqda. Bu boradagi tashkiliy-tuzilmaviy o'zgarishlar, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga oid islohotlar yoshlarning talabiga mos, ularni o'ziga tortatigan yangicha formatda bo'layotgani e'tiborga molikdir. Xususan, bugun yoshlar davlat yoki xususiy sektorda ishlaydimi, qishloq yo shaharda yashaydimi, ishsizmi, ko'makka muhtojmi, yo bo'lmasa, yirik tadbirkormi — ular barcha sohalar, yo'nalishlar kesimida taklif etilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan foydalanishi mumkin.***

Bunday islohotlar zamirida nafaqat aholimizning katta qismi hisoblangan yoshlar muammolarini hal etish, balki kelajakka mustahkam poydevor qo'yishdek ezgu maqsad yotibdi. O'g'il-qizlarni qiynayotgan muammolar ayni paytda hal etilmas, yoshlarga ilm olishga rag'bat, o'z kasbini tanlashga yetarlicha imkoniyat bo'lmasa, kelusida muammolar qamrovi kengayib boraveradi.

Joriy yilning "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nomlanishi mazkur yo'nalishdagi ishlarimizni yangi pog'onaga olib chiqdi. Buni 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilab berilgan vazifalar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Davlat davturida ko'plab hayotbaxsh loyihalar ko'zda tutilgan. Xususan, Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy muhofazaga muhtoj talabalarni himoya qilish va ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlash maqsadida 2021/2022-o'quv yilidan oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti joriy etilishi ilmga chanqoq yigit-qizlarga yana bir imkoniyatdir.

Davomi 2-sahifada.

# Ляган цвета неба,

## ИЛИ КЕРАМИКУ – В КАЖДЫЙ ДОМ!

***Все оттенки изумрудно-бирюзового, синего и голубого – отличительный признак, по которому легко узнать творения знаменитых риштанских мастеров-кулолов. Кажется, словно само небо отразилось в этих пиалах, тарелках, вазах. Интересно, что вода в глиняных сосудах даже в сорокаградусную жару сохраняет прохладу и свежесть, а еда из керамических ляганов становится вкуснее.***

8



# Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani...

FIKR

***Davlatimiz rahbari o‘zining har bir chiqishida, imzolagan har bir farmon, qaror yoki farmoyishida yoshlar masalasiga bevosita yoxud bilvosita to‘xtalib o‘tadi. Chunki yoshlar mamlakatning, millatning bugungi kuni va kelajagi. Jamiyatni olg‘a yetaklovchi qudratli kuch!***

Prezidentimizning 2020-yil 19-oktabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorini olib qaraylik. Ushbu tarixiy hujjat bundan olti asr ilgari yashab o‘tgan bobokalonimiz haqida. Lekin mohiyatan bugungi va kelajakdagi yoshlarga mehr-muhabbat tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan, yoshlar tarbiyasiga, ma’naviyatiga yo‘naltirilgan, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, yosh avlodni yuksak axloqiy qadriyatlarga hurmat, ona yurtga sadoqat ruhida voyaga yetkazishda buyuk allomalarimiz merosining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

G‘azal mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiyni dunyo xalqlari benazir shoir, buyuk mutafakkir sifatida taniydi, o‘rganadi. Mamlakatimizda ham mutafakkir tavalludining 580 yilligini nishonlash bo‘yicha taraddud ishlari ko‘lami va qamrovi kengaydi. Shu maqsadda tashkiliy qo‘mita tuzilishi, Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti mudiri boshchiligidagi delegatsiya Afg‘oniston Islom Respublikasining Hirot shahrida bobomiz mangu qo‘nim topgan qabr va maqbara maj muasini ta’mirlash, atrofini obodonlashtirish bo‘yicha o‘rganish ishlarini olib borishi belgilandi.

Adabiyot bir ummon bo‘lsa, Navoiy qoldirgan adabiy meros shu ummondagi duru javohirlardir. Ularni adabiyot ixlosmandlariga tortiq etish yo‘lida yurtimiz olimlari bilan bir qatorda xorijlik tadqiqotchilar ham chuqur ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Alisher Navoiyning ijodiy merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirishga ulkan hissa qo‘shgan mamlakatimiz va xorijiy davlatlar fuqarolarini hamda ilmiy-ijodiy muassasalarni taqdirlash maqsadida Alisher Navoiy ordeni ta’sis etilishi ayni yo‘nalishning istiqboliga xizmat qiladi.

Qarorda “Navoiy va yoshlar” maxsus dasturini yaratish ko‘zda tutilgani va Fanlar akademiyasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda 2020-2021-yillar davomida Alisher Navoiyning qo‘lyozmalari asosida shoir asarlarining mukammal ilmiy nashrini yaratish belgilangani yosh avlodning kelgusidagi izlanishlariga mustahkam poydevor bo‘ladi. Umumta’lim maktablarida o‘tkazilayotgan “Navoiy vorislari” g‘azalxonlik tanlovlari, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilari o‘rtasida bo‘lib o‘tayotgan “Navoiyni anglash” mavzusidagi insholar tanlovlari o‘sib kelayotgan yosh avlodning buyuk shoir ijodiga e’tiborini yanada oshiradi.

Hazrat Navoiy insonni hayotda munosib o‘rin topishga undaydi:

*Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani,*
*Qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani,*

degan misralari asrlardan buyon o‘ziga xos da’vat sifatida yangramoqda.

Yoinki, “Farhod va Shirin” dostonida Farhod tilidan aytilgan:

*Hunarni asrabon netgumdir, oxir,*
*Olib tuproqqamu ketgumdir oxir,*

kabi so‘zlari egallangan ilm va hunarni xayrli maqsadga sarflashga, shu tariqa mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga undaydi.

O‘tgan yili Toshkentda o‘tkazilgan Yoshlar forumida davlatimiz rahbarining: “Hunarli kishi xor bo‘lmas”, deydi xalqimiz. Ammo keyingi paytda farzandlarimizning mohir hunarmandlar qo‘lida kasb-hunar o‘rganishiga yetarli e’tibor berilmayapti. Vaholanki, ustoz ko‘rgan o‘g‘il-qizlarimiz domlasiga munosib bo‘lishga intiladi, ularning ko‘magi bilan hayotda o‘z o‘rnini topadi”, degan so‘zlarini shu da’vatning amaliy ifodasi desak bo‘ladi.

**Hidoyat JO‘RAYEVA,**
**jurnalist**

Imkoniyat va imtiyozlar:

# HAMMA UCHUN VA HAR DOIM

Boshlanishi 1-sahifada.

Umuman keyingi yillarda yoshlar orasida ilm olishga rag‘bat kuchayib boryapti. Bir vaqtning o‘zida ikki-uch nafar farzandini shartnoma to‘lov asosida o‘qitayotgan yurtdoshlarimiz ham ko‘p. Davlat dasturida o‘g‘il-qizlarini o‘qitish niyatidagi bunday ota-onalarga ham imkoniyat eshigi ochilmoqda. Ya’ni oliy ta’lim muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o‘qiyotgan oilalarga ta’lim krediti berish va talaba tomonidan ushbu kreditni o‘qish davri tugagandan so‘ng qaytarish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmoqda. Ayrim oilalar moddiy qiyinchilik sabab bolalarini bir vaqtda o‘qitishga qiynaladi. Natijada chetdan ish izlaydigan yoki umuman ishsiz yoshlar safi bittaga ko‘payadi. Mazkur yangi tizim shu muammoning yechimidir.

Shuningdek, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarining magistratura va doktoranturasida o‘qishga yuboriladigan yoshlar soni 5 barobarga oshirilishi ham mamlakatimizda salohiyatli, o‘z o‘rniga ega kadrlarning ko‘payishiga xizmat qiladi.

Bugun yoshlarni ish bilan ta’minlash borasida ham ko‘plab vazifalar oldimizda turibdi. Ishsizlikni yo‘qotmas ekanmiz ijtimoiy muammolar ko‘payib boraveradi. Davlat dasturida bu borada aniq vazifalar belgilab berildi. Jumladan, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga dehqonchilik bilan shug‘ullanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida dehqonchilik qilish uchun yangi o‘zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlaridan 0,1 gektardan 1 gektargacha yer ajratiladigan bo‘ldi. Bu yer maydonlarini sug‘orish, elektr energiyasi bilan ta’minlanish, yerni haydash, urug‘, ko‘chat xarid qilish va boshqa xarajatlar uchun subsidiya ajratiladi. Bundan tashqari, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga faoliyat boshlashi uchun zarur bo‘lgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun 7 million so‘mgacha subsidiyalar ko‘zda tutilmoqda.

Bu yilgi Davlat dasturi yoshlar hayotida katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu imkoniyatlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish, u yerda belgilangan vazifalarni hayotga to‘la tatbiq etish har birimizning zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

**Muzaffar AKRAMOV,**
**O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisining o‘rinbosari**

# CHIQARILmaGAN XULOSAlar

BOR GAP



***Toshkent metro bekati. Navbatchi xodim yosh er-xotinga niqob ta’qishi kerakligini aytib ogohlantirdi. Avvaliga niqoblari yo‘qligini aytishdi, niqobsiz metroga tushish mumkinmasligini eshitgach, “hozir taqamiz”, deya tushib ketaverishdi. Ammo shunda ham niqob ta’qmasdan harakatlanavergach, nozir ortlaridan borib qayta ogohlantirdi. Shunda er boshlagan janjalni xotini davom ettirdi. Oraga boshqa yo‘lovchilar tushib, yonidan niqob chiqarib berishdi. Er-xotin metro xodimini haqoratlaganchа o‘z yo‘llarida ketishdi...***

Ko‘rgan odamning ta’bi xira tortadi. Axir hammaning sog‘lig‘i birinchi navbatda o‘zi uchun muhim-ku!

**STATISTIKA**

Pandemiya hali tugagani yo‘q. Shunchaki, epidemiologik vaziyat barqarorlashgan, xolos. Kasallikning tarqalishi kuzatilmoqda. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha kasallanish 73 milliondan oshib, o‘lim holati 1 million 700 mingga yaqinlashmoqda. Jumladan, AQShda kasallanganlar soni 17 milliondan ortiq, shundan o‘lim holati 311 mingdan oshdi. Hindistonda kasallanganlar soni 1 millionga yaqinlashdi, o‘lim holati 144 mingdan ziyod. Ehtimol, shu daqiqalarda bu raqamlar yana o‘smoqda...

Dunyo olimlari hamon kasallikka qarshi to‘liq kafolat beradigan vositasini yarata olgani yo‘q. Biroq barcha mutaxassis va ekspertlar tibbiy niqoblarni taqish samarali vosita ekanini ta’kidlamoqda. Chunki tibbiy niqobda bo‘lgan hududlar aholisi kasallikka chalinish ko‘rsatkichi past.

**KORONAVIRUS YUQTIRISH XAVFI QACHON KAMAYADI?**

Mutaxassislarning aniqlashicha, toza havo oqimini doimiy ravishda ta’minlash orqali koronavirus yuqtirish xavfini kamaytirish mumkin. Virus odam organizmiga nafas olish tizimi orqali kirib boradi. Shu bois xonada muntazam ravishda toza havo oqimini ta’minlash va uydagi barcha sirtlarni tozalab turish kerak. Havoda kislorod qancha ko‘p bo‘lsa, odamning nafas olish yo‘llari kasalliklariga bardoshliligi shuncha ortadi.

**NIQOBDAN QAYTA-QAYTA FOYDALANISHNING ZARARI**

Lovell universiteti va Kaliforniyaning Baptist universiteti tadqiqotchilari tomonidan pandemiya paytida ishlatilgan tibbiy niqobni taqish uni taqmagandan ko‘ra xavfliligini aniqladi.

Niqob yuz atrofidagi havo oqimiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa odamni zarralardan ko‘proq nafas olishga majbur qiladi. Ishlatilgan niqob mayda tomchilarni samarali filtrlay olmaydi. Ba’zan “niqob taqmagandan ko‘ra har qanday niqob yaxshi” deb hisoblashadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muayyan vaqt ishlatilgan himoya vositalari 2,5 mikrometrdan kichik zarralarga qarshi kurasha olmaydi.

**NIQOB TAQISH BEKOR BO‘LGANI YO‘Q...**

Yurtimizda kasallikka qarshi ko‘rilayotgan choralar sabab virus tarqalishini jilovlashda ijobiy natijalarga erishilayotgani quvonarli hol. Lekin bu xotirjamlikka berilish uchun asos bo‘lmaydi.

Bee’tiborlik faqat ziyon yetkazadi. Vaziyatga to‘g‘ri baho berishni hamda ijtimoiy masofa saqlashni unutmang. Tibbiy niqob taqib yurish majburiy!

**Ro‘ziqul OCHILOV**

# “YOSHLAR TA’LIM GRANTI”

## loyiha doirasida 203 nafar talabaning shartnoma puli to‘lab berildi



Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Mehrli qo‘llar xayriya fondi hamkorlikda jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar qatlamini qo‘llab-quvvatlash maqsadida respublikadagi oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan chin yetim, nogiron, boquvchisi yo‘q va Mehribonlik uyida tarbiyalangan talabalar uchun “Yoshlar ta’lim granti” loyihasini e’lon qilgan edi.

Grant doirasida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning 2020-2021-o‘quv yili uchun stipendiyasiz hisoblangan to‘lov-shartnoma mablag‘ining 50 foizigacha bo‘lgan qismini to‘lab berish ko‘zda tutilgan.

Loyiha doirasida metsenat.uz platformasiga 1 ming 570 nafar talabadan ariza kelib tushgan. Har bir ariza ekspertlar kengashi tomonidan ikki bosqichda o‘rganib chiqildi. Unga ko‘ra, hujjatlari nizom qoidalariga to‘liq javob beradigan 203 nafar talaba (shundan: 36 nafari chin yetim, 3 nafari nogiron, 11 nafari mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, 153 nafari boquvchisini yo‘qotgan talabalar)ning o‘qishi uchun 500 million so‘mga yaqin mablag‘ to‘lab berildi.

**Muxbirimiz**

TA'LIM TARAQQIYOTI

# BILIM – INSONNI ULUG'LAYDI

*So'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Chunki bu tizim ishga solinsa, ta'limda tub o'zgarishlar bo'ladi, sohada o'zaro sog'lom raqobat muhiti shakllanadi. Raqobat bor joyda rivojlanish bo'ladi.*

*Natijada, oliy o'quv yurtlari bo'ladimi, maktab yoki maktabgacha ta'lim muassasasi bo'ladimi — ta'lim sifati oshadi. Bu — isbot talab qilmaydigan haqiqat.*

*Xo'sh, bugun bu borada Qo'qon universitetida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Bu xususda universitet rektori — iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafoqulov quyidagilarni so'zlab berdi.*






— Bizning universitetimiz o'z vazifalarini tizimli amalga oshirib kelmoqda, — deydi Sherzod Mustafoqulov. — Xususan, jahon tajribasini hisobga olgan holda, oliy ma'lumotli raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, o'quv jarayonining ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'liqligini kuchaytirish, oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, mamlakat hududlaridagi yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'ryapmiz.

Universitet oldiga bir qator muhim vazifalar qo'yilgandi. Jumladan, O'zbekiston oliy ta'lim dasturlari bilan birga, dunyoning nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini joriy etish. Qolaversa, respublika iqtisodiyoti real sektorlari tarmoqlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori malakali oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash, xorijning ilg'or oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosida tajriba almashish dasturlarini amalga oshirish ham ko'zda tutilgan.

Eng muhimi, bu — o'quv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritib borish, innovatsion hamda ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tatbiq qilish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ilm-fan va texnikaning yangi yutuqlarini joriy etish ham asosiy masalalardan biridir.

Fan-texnika taraqqiyotining shiddat bilan o'sib borishi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ilmiy tadqiqotlar ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Jahonning yetakchi mamlakatlari tomonidan ilmiy-texnik taraqqiyotning fundamental asosi bo'lgan aniq fanlarning rivojlanishini rag'batlantirish hamda shu asosda iqtidorli yoshlarni kashf qilish bo'yicha o'ziga xos selektsiyani amalga oshirish maqsadida investitsion dasturlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etilmoqda. Bu, o'z navbatida, bizning yutuqlarimizga asos bo'ladi.

Hozirgi kunda nodavlat oliy ta'lim tashkilotimiz zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv va ilmiy adabiyotlar, kompyuter texnikasi bilan ta'minlangan. O'quv jarayoniga ta'lim texnologiyalarini joriy etish ishlariga ham alohida urg'u beryapmiz. Universitetga tanlov asosida malakali professor-o'qituvchilar jalb qilingani ko'zlangan maqsadlarimizga erishishda qo'l kelyapti.

Bundan tashqari, har yili ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning qobiliyatli, iqtidorli hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan farzandlari orasidan tanlov asosida bepul, universitet granti hisobidan abiturientlarni o'qishga qabul qilyapmiz. Bu ham ijtimoiy himoya masalasi ustuvor ahamiyat kasb etayotganidan dalolatdir.

Aniq fanlarning chuqur o'qitilishi talaba-yoshlar uchun juda zarur. Deylik, matematika. Bu fan — juda ko'p fanlarni puxta o'rganishga yo'l ochadi. Uning asosiy vazifasi faqatgina hisob-kitobni o'rgatishdangina iborat emas. U o'quvchilarni fikrlash, miya imkoniyatlarini ishga solish, tafakkur qilishga undaydi. Masala va misollar kichik to'siq bo'lsa, matematika kelajakda bundan-da katta g'ovlarni yengib o'tishga yordam beradi, o'quvchini algoritm, ya'ni tartibga, to'g'ri va noto'g'rini ajratishga o'rgatadi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, davlatimiz rahbarining e'tibori bilan matematika fanini o'qitish tizimini isloh qilish boshlandi. Matematika fanidan turli olimpiadalarni tashkil etish, bunday olimpiadalar muntazam o'tkazilishini an'anaga aylantirish borasida ham universitetimizda muayyan ishlar amalga oshirilyapti.

Xususan, universitetimizda respublika umumta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida matematika fanidan "Qo'qon olimpiadasi"ni tashkil etmoqchimiz. Bu borada "Qorako'l ziyo" nodavlat ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda barcha zarur chora-tadbirlarni belgilab oldik.

Aytib o'tishim lozimki, "Qo'qon olimpiadasi" xususiy sektor vakillari tomonidan ilk marotaba tashkil etilmoqda. Bu tadbir zamirida kelajakda yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarish maqsad qilingan. O'zbekistonning xalqaro miqyosda, xususan, ilm-fan olamida o'ziga xos nufuzini oshirishga xizmat qiladigan iste'dodli yoshlarni kashf qilish ham ko'zda tutilgan. Shu jihatdan "Qo'qon olimpiadasi" yosh matematiklarni aniqlash va ularning yuksaklikka parvoziga zamin yaratuvchi o'ziga xos pillapoya vazifasini o'taydi. Shunday ekan, ushbu olimpiadani yosh matematiklar intiqib kutadigan aqliy bellashuvlardan biriga aylantirish uchun barcha choralarni ko'ramiz. Buning uchun imkoniyatlarimiz yetarli.

Zotan, bunday fan bellashuvlari kelgusida bilimdon yoshlar safini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Matematikadan bilimi yuqori bo'lgan yoshlar bilan esa davlatimiz barcha jabhada yuqori natijalarga yanada tezroq erishadi. Darvoqe, "Qo'qon olimpiadasi"ni tashkil etish va o'tkazish orqali yoshlar orasida "Bilim — insonni ulug'laydi", degan shior keng targ'ib qilinishi bilan birga, g'oliblarning erishgan yutuqlarini keng jamoatchilik o'rtasida yoritish orqali yoshlarga yanada ko'proq motivatsiya berish ham maqsad qilingan. Bu o'quvchi-yoshlar, talabalar orasida ilm olishga bo'lgan qiziqish va intilishni yanada kuchaytiradi.

* * *

Darhaqiqat, bilim — insonni ulug'laydi. Buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o'z davrida yoshlarga qarata aytganidek: "Quyoshliq istasang, kasbi kamol et".

Zero, insonlarga quyosh kabi ziyo nurini taratishni, yaxshilik qilishni istaydigan har bir fuqaro kelajakka, kamolotga intilib, ilm va kasb-hunarlarni puxta egallashi lozim. Bu esa oldimizga eng katta maqsad qilib qo'yilgan — mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etish hamda unga erishishimizda g'oyat muhim.

**Iqbol PARDAYEVA yozib oldi.**

INNOVATSIYA

*Yuragida o'ti bor bugungi kun yoshlarining o'zida intilish va yangilikka qiziqish kuchli. Ular yaratib berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, bildirilayotgan ishonchni oqlamoqda. O'g'il-qizlarning takrorlanmas g'oyalari, har jihatdan puxta o'ylab qilinayotgan tashabbuslari hayotga tatbiq etilmoqda. Bugungi qahramonimiz ham shunday izlanuvchan yoshlardan biri. Andijon mashinasozlik institutining 2-bosqich talabasi Oybek Umarov quyosh energiyasida harakatlanuvchi aftomobil yasashni uddaladi. Bu kabi resurs tejovchi yangi loyihalarni yoshlar yaratayotgani quvonarli hol.*

# TALABA ELEKTROMOBIL YARATDI

## mashina quyosh nuridan quvvat oladi

— Quyosh energiyasidan quvvat olib harakatlanuvchi elektromobilni 3 oy mobaynida uy sharoitida, qo'l mehnati bilan yasadim, — deydi Oybek Umarov. — Mazkur elektromobil quyosh nuridan quvvatlanadi. Bu mashinadan ko'proq turistik hududlarda foydalansa bo'ladi. Sababi uni boshqarish oson, ortiqcha kuch talab etmaydi. Elektromobil sodda qilib yaratilgan. Ikkita pedali bor: biri tormoz, biri gaz hamda ruldan tashkil topgan. To'liq quvvat olganda ulovimiz 100-120 kilometr masofani bosib o'ta oladi. Mashina to'liq quvvatlanishi uchun ikki yarim soat vaqt ketadi. Tom qismida quyosh batareyasi bor. Shuningdek, tezkor quvvatlagichi ham mavjud. Bu uy sharoitida ham quvvatlanish imkoniyatini beradi.



Oybek elektomobil va turli texnikalar yaratishga ishqiboz. Uning bu qiziqishi kelajakda ko'plab muvaffaqiyatlar sari yetaklasa, ajab emas. Viloyat va respublika miqyosidagi startup loyihalar hamda turli tanlovlar unga yaxshigina imkoniyatlar eshigini ochdi. Oybek ayni paytda WIF Xalqaro yoshlar innovatsion forumiga yangi ixtirolarini taqdim etgan. U o'ziga bo'lgan ishonchi va puxta o'ylab yaratilgan ixtirolari bilan yaxshi natijalarga erishishiga ishonadi.

Oybek Umarov 2019-yili "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. 2020-yilning dekabr oyida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o'tkazilgan TECHNOWAYS texnologik rivojlanish marafonida 800 ta loyiha qatorida uning ham loyihasi yuqori baholandi. Yakunda eng sara 18 ta loyiha qatorida 23 million so'mlik rag'batlantiruvchi pul mukofotiga ega bo'ldi.

Kelajakda qahramonimiz resurs tejovchi, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan elektromobillarni quvvatlovchi markaz tashkil etishni rejalashtirgan. Ayni paytda mazkur loyiha ustida tinimsiz ish olib boryapti. Bundan tashqari, u bir qancha ixtirolari bilan xorijiy tanlovlarda qatnashishni maqsad qilgan.

**Ma'mura HUSANOVA**

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

SPORT




**Sportning texnik turlaridan biri — karting o'zining jozibadorligi va tomoshabopligi bilan ajralib turadi. Yaqin-yaqingacha karting erkaklar sporti sifatida e'tirof etilgan. Endilikda, kartingchilar orasida oz bo'lsa-da, qizlarni ham uchratish mumkin..**

# KARTINGCHI ANGEL

## bu ancha noyob hodisa!

...Kunlarning birida dadasi Angelni karting poygalari uyushtirilayotgan joyga olib keladi. O'shanda, uni sportchilarning mahorati, poygada qo'llayotgan taktikasi, bir-biridan ko'rkam va ixcham kartinglarning yeldek harakati uni o'ziga oshufta etadi. Bu paytda, Angel sakkiz yoshda edi.

Shu bo'ldi-yu, qizaloq O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati texnik va amaliy sport turlari markazining karting seksiyasiga qatnay boshlaydi. U yerda tajribali trener




Yevgeniy Jumaniyazov qo'l ostida ushbu sport turining sir-sinoatlarini sidqidildan o'rganishga kirishdi.

Ta'bir joizki, undagi qobiliyat tezda yuzaga qalqdi. Qisqa fursat ichida karting haydashni, uning qoidalarini o'zlashtirdi. Yosh sportchining sa'y-harakatlari besamar ketmadi, klub miqyosida uyushtirilgan ilk musobaqadayoq sovrindorlar safidan joy oldi. Ayniqsa, 2018-yil kartingchi qiz hayotida o'chmas iz qoldirdi. Dvigatel hajmi 50 santimetr/kub bo'lgan karting poygalarida qatorasiga to'rt marotaba Xorazm viloyati chempionligini qo'lga kiritdi. Karting musobaqasi nizomiga ko'ra, poygalarda o'g'il va qiz bolalar bir vaqtning o'zida o'zaro bellashishiga e'tibor qaratsak, bu Angel uchun o'ziga xos natija edi.

Tabiiyki, uning mahorati mutaxassislar nazaridan chetda qolmadi. Ko'p o'tmay Angel viloyat terma jamoasiga jalb qilindi. Shu tariqa, mamlakatimiz miqyosidagi musobaqalarda Xorazm vohasi sharafini himoya qilishga kirishdi. Ayni damda, shijoatkor bu qiz dvigatel sig'imi yanada kuchli, ya'ni 61,5 santimetr/kub bo'lgan kartingda kuch sinashib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lmoqda.

— Qizimni ma'nan qo'llab-quvvatlab turish uchun har doim musobaqalarga boraman, respublika birinchiliklarini qoldirmaslikka intilaman. Bu men uchun an'anaga aylangan. Uning yutuqlarini ko'rib, quvonaman, qalbim faxrga to'ladi. Zero, farzandining kamolini ko'rish har bir ota-ona uchun sharafdir. Albatta, buni hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi, — deydi Angelning onasi Yelena Lutsenko.

O'tgan yili pandemiya tufayli deyarli musobaqalar o'tkazilmadi. Angel bir marta, 5-8-noyabr kunlari Namangan viloyati Uchqo'rg'on shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida ishtirok etdi, xolos. To'g'ri, u mazkur musobaqada sovrindorlar safiga kira olmadi. Shunga qaramay, musobaqa tashkilotchilari urganchlik kartingchi qizni "G'alabaga bo'lgan irodasi uchun" faxriy yorlig'i bilan taqdirladi.

Bugungi kunda Angel Lutsenko Urganch shahridagi 10-umumta'lim maktabining 7-"V" sinfida o'qimoqda. A'lo o'qishi, jamoat ishlaridagi faolligi va sportga yuksak mehri bilan sinfdoshlariga o'rnak bo'layotir. Ha, aytgancha, uning orzulari bisyor. Shulardan biri karting bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'lish.

**Sumbuloy NURMETOVA**

NUQTAI NAZAR



**Har qanday siyosatning samarasi, obro'si undagi muntazamlik, so'z va amal birligi, ijrodagi mas'uliyat hissi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayni talablarga rioya etilganida – g'oya hamda da'vatlar hayotga izchil tatbiq qilingandagina ham siyosatning, ham siyosatchining obro'si haqida, safarbarlik kuchi, ommani o'z ortidan ergashtiruvchi qudrati xususida gapirish mumkin.**

# Yoshlarsiz kelajak yo'q

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari, jumladan, shunday dedi: "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan".

Darhaqiqat, bu so'zlar mamlakatimizda ma'naviyat, ma'rifat, mafkura masalalari davlat darajasida ustuvor ahamiyat kasb etib kelayotganining yorqin dalilidir. Shu bilan birga, bu yo'nalishdagi ishlarimiz tadrijiy ravishda takomillashib, yangicha mazmun kasb etib bormoqda.

Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida zamonaviy dunyoda terrorizm tahdidlari kuchayib borayotganiga qarshi faqat kuch ishlatish yo'li bilan kurashib bo'lmasligini ta'kidlar ekan: "Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir", deya, avvalo, o'z xalqini, qolaversa, butun dunyo hamjamiyatini nihoyatda muhim va ezgu sa'y-harakatga da'vat etgan edi.

O'tgan qisqa davr ichida yurtimizda ham diniy, ham dunyoviy ma'rifatni yoyish, bu beqiyos boylikni hosil qiluvchi muassasalar va ularda xizmat qiladigan ziyoli insonlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida qanchalar ko'p ish qilinganini xalq ko'rib-bilib turibdiki, hozir ularni birma-bir sanab o'tish shart emas. Binobarin, "moziyga qaytib ish ko'rish – xayrli" ekanini teran anglagan O'zbekiston rahbariyati, qadim Turon kengliklarida aynan ma'rifat ziyosi taralgan yuz yilliklar davomida diniy va milliy masalada hech bir nizo urchimaganini namuna sifatida dunyoning yodiga solmoqda. Shuning barobarida, bugun faqat o'tmish yutuqlari bilangina g'ururlanib o'tirish mavridi emasligi, dunyoning mutaraqqiy mamlakatlarida kechayotgan jarayonlardan bir kun ortda qolish – vaqti kelib uchqur yillar changto'zoni ichida yo'qolish xavfini keltirib chiqarishi mumkinligi ham millatga ochiq aytilmoqda.

Zero, yuqorida eslanganidan teskari hollarda – ma'rifatga befarqlik, ilm-u urfonga bepisandlik pallalarida millat va mamlakat har turli balo-yu bosqinlarga mubtalo bo'lgan. Xalqimizning ulug' tarbiyachilaridan biri bo'lmish Abdurauf Fitrat o'tgan asrning o'ninchi yillarida yozgan "Oila" nomli asarida turkistonliklarning bolasidan ko'ra qo'rasidagi qo'y va moliga ko'proq e'tiborli ekanliklari, natijada, yil ichi chorva mollari biror kasalga yo'liqmagani holda, bolalari ne-ne xastaliklarni boshdan o'tkazishi-yu qanchasi bevaqt nobud bo'lishi xususida kuyinib yozgan edi. Ular orasida jism-u jonigina emas, aql-u tafakkuri pajmurda etilganining hisobi qancha? Aslida ham Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlari la'natlagan padarkushlar osmondan tushmagan edilar...

Gap shundaki, dunyoga kelayotgan har bir avlodga ta'lim-tarbiya har safar yangidan – noldan boshlab berilishi talab etiladi, oldingi avlodlar bilim va tajribasini yoshlarga mexanik tarzda, osongina ko'chirib o'tkazish mumkin emas. Agar biz "tariximizning eng kir va qora kunlari bo'lmish xon zamonlari" va mustamlaka davrida yuz bergan ko'rguliklar qaytarilishini xohlamasak, o'zimizni ma'rifiy jihatdan tezroq boyitish, intellektual tomondan ildam yuksaltirish tashvishini qilmog'imiz kerak.



Rustam NAZARMATOV olgan sutarlar.

Prezident Sh.Mirziyoyev o'tgan yilning 26-dekabr sanasida poytaxtimizning Eski shahar qismida barpo etilgan Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi, adib muzeyi va "Turon" kutubxonasining ochilish marosimida: "Katta-katta savob ishlar qilyapmiz, Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar barpo etishga kirishdik. Bu bilan mamlakatimizda uchinchi renessans davriga poydevor qo'ydik", der ekan, bu borada so'z va ish birligi ta'minlanishi qanday natijalarga yo'l ochishiga e'tiborimizni qaratdi.

Darhaqiqat, yosh iste'dodlarni erta aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olib o'qitish tizimini yo'lga qo'yish, yoshlarning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishiga yordam beruvchi ko'p tarmoqli, raqobatbardosh ta'lim muhitini yaratish orqali milliy yuksalishga juda kuchli turtki berish mumkin. Ayni muhit va sharoitlarda voyaga yetadigan yoshlarni yo'ldan ozdirish, mayda maishiy istaklarga qul qilish, korrupsiya yoxud tekinxo'rlik domiga tortish oson bo'lmaydi. Bunday yoshlar har ikki gapning biriga Vatan so'zini qo'shmay yurtni yuksaltirishi, minbarlarda "xalqim" deya hayqirmay ham millatini jahonga tanitishi mumkin.

Shunday ekan, Prezidentimizning 2017-yil 15-iyun kuni o'tkazilgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda aytgan mana bu so'zlarini unutishga hech kimning haqqi yo'q: "O'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi, ayniqsa, faol bo'lishlari lozim.

Afsuski, biz bu masalalarda uxlab o'tiribmiz. Gapning ochig'i shu: uxlab o'tiribmiz".

Demak, taraqqiyot uchun, milliy yuksalish uchun, nurli kelajakka yetish uchun butun xalq uyg'onmog'i, oyoqqa qalqmog'i, o'z taqdirini o'zi yaratmog'i lozim.

Bu – hayotning, taraqqiyotning, insoniylikning talabi!

**Rahmon QO'CHQOROV, Dilnavoz TOJIBOYEVA, Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchilari**



*Царь поэтов, чей 580-й день рождения торжественно отмечается не только в Узбекистане, но и во многих странах, в поэме «Смятение праведных» утверждает: «Бог человека словом одарил». Перечитывая творения великого Навои, мы видим, сколь щедро награжден сам поэт-гуманист, видный государственный деятель, человек лучших душевных качеств. Приняв с благодарностью дар, что «сильнее самых сильных чар», создатель знаменитой «Пятерицы» передал его потомкам.*

*Иначе чем объяснить непреходящее влияние его слова, над которым не властны века и которое звучит так современно? Навои рассыпал жемчуг слова – нам его собирать.*



СУДЬБОНОСНЫЕ СТРОКИ

# ДОЙТИ ДО САМОЙ СУТИ

***Отношение к поэзии у всех разное. Кто-то довольствуется поверхностными знаниями, кто-то считает своим долгом постичь тайная тайных, познать глубинный смысл волшебных строк и не раз возвращается к ним, получая вознаграждение в виде больших и малых открытий.***



Так произошло с доктором филологических наук, профессором кафедры ирано-афганской филологии Ташкентского государственного университета востоковедения.

– Читая газели, дастаны Навои в школьные годы, осознавал, что не понимаю всей глубины созданного им, – рассказывает кавалер ордена «Дустлик» Ахмад Куранбеков. – Мечтая дойти до самой сути, остался верен цели по сей день. Представьте, с каким воодушевлением я воспринял новость о том, что постановлением Президента создан Международный фонд имени Навои, миссия которого – заниматься изучением жизни и наследия поэта, а также популяризацией его произведений в том числе за рубежом. Значит, перед молодым поколением Узбекистана открываются еще более широкие возможности.

Видно, судьбе было угодно поменять мои юношеские лингвистические планы. Благодарен ей за такой поворот. Собирался изучать арабский язык, а мандатная комиссия определила для меня персидский. Как бы иначе смог понять оригинальные тексты, подписанные тахаллусом (псевдоним) Фани?! Ведь они на персидском. Любой (даже идеальный) перевод отличается от первоисточника. Кстати, одного персидского языка недостаточно. Необходимо знать суфийскую философию, Коран, хадисы. Иначе эпитеты и метафоры будут неправильно истолкованы. Обращался к трудам узбекских, иранских ученых.

Мой исследовательский багаж – статьи об изучении символики Навои. Работы в этом направлении непочатый край. На узбекском языке написал монографию «Капли океана из «Пятерицы» Навои» и на персидском – «Жемчужины значения из «Пятерицы» Навои». Вторая монография издана в 2020 году в Иране.

С 2012-го по 2016 год мы с группой ученых создавали конкорданс «Хамсы». Говоря образно, «это чаша Джемшида» или «зеркало Искандера», раскрывающие глубину дастанов. Словник, указывающий адрес каждого словоупотребления в бейтах, дающий представление о фонетике, морфологии, семантике, стилистике. Конкорданс – основа для составления словаря произведений Навои. К сожалению, такого труда пока еще нет. Необходимость его создания подчеркивалась в постановлении «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои».

В этом же документе обозначено проведение международной конференции, которая на высоком уровне прошла в нашем университете.

Профессор Куранбеков поделился мыслями по поводу преподавания творчества Царя поэтов:

– Вольное толкование недопустимо. Приступая к анализу текста, школьный учитель сам должен знать ряд слов из персидского, арабского, староузбекского языков. Думаю, нужна особая подготовка, семинары, проводимые специалистами. Непонятное не всегда подстегивает интерес, случается, что сводит его к вежливому дежурному слушанию. Следовательно, к зазубриванию произведения. А перед нами стоит задача – формировать культуру чтения, зарождать и развивать любовь к национальной литературе.

**Записала Полина ЛАНСКАЯ**



***Если взгляд с первых месяцев жизни выхватывает пятнадцать заветных томов на самом почетном месте в домашней библиотеке, быть ребенку преданным поклонником классика восточной литературы***

СЕМЕЙНЫЕ ЧТЕНИЯ

# И ветер слова хлынул с древних гор

Даже буквы молодое поколение семьи Валиевых повторяло по обложкам Собрания сочинений Навои: «А – Алишер». С интересом внучата наблюдали за бабушкой и дедушкой, удивляясь, почему они вдруг застывают с книгой, даже не дойдя до письменного стола. Слушая сказки перед сном, просили почитать из тех самых толстых сборников, которые так привлекают Махмуду Заировну и Баходира Хабибовича. Затаив дыхание подкрадывались к дедушке, много лет проработавшему в Государственном музее литературы имени Алишера Навои, академику академии наук «Турон»: он ведь о писателях пишет.

Женщина бережно, боясь спугнуть детское любопытство (недаром, имея педагогическое образование, несколько лет работала в газете «Маърифат»), вводила информацию «по каплям». То портрет покажет и с гордостью произнесет имя изображенного на нем, то прочитает пару бейтов. А то начнет декламировать газель, да так выразительно, что дети заслушаются: «Как песня».

– Знакомство с творчеством Алишера Навои нужно начинать с детского сада, – убеждена Махмуда Валиева, кавалер ордена «Соглом авлод учун» II степени. – Делать это доходчиво, предварительно проведя нужную словарную работу. Скажем, такие строки «*Посей добро, и добрый урожай Сторицею под осень собирай*». Мальчишки и девчонки, участвующие в Празднике урожая, легко поймут эту метафору. Мои внуки усвоили сразу и какое-то время воспринимали бейты как своеобразные загадки, что тоже неплохо.

Семейные декламации наполняют дом оживлением. Задает тон бабушка, показывая образец выразительного чтения. Разбирает рубаи по строчкам, не забывая



спросить мнение внуков. Ребятам особенно нравится, когда старшее поколение дает поэтичную характеристику ситуации: *«И ветер слова хлынул с древних гор»*. А уж с каким нетерпением ждут легенд о Навои!

Не будь таких мощных домашних тренингов, решились бы Азаматбек, Аслзода, Шахриёр, Фарзона участвовать в конкурсах чтецов? Азаматбек освоил всю «Хамсу», Аслзода зачитывается поэмой «Фархад и Ширин», младшие пока учат доступные для их возраста рубаи и знают: газели сложнее, но покоряются упорным и целеустремленным. Даже дошколята Шахризода и Хабибуллах с серьезным видом листают книги и изучают миниатюры.

Каждый член этой семьи убежден: один из важнейших признаков культуры – знание творчества Навои. Ведь в его произведениях дана целая программа формирования человека – доброго, мудрого, щедрого, принципиального, честного, нацеленного на совершенство.

**Ольга ВОЛОДИНА**



# Будь здоров!

## Молодежь и ЗОЖ

***В трех районах Каракалпакстана в 2021–2022 годах будет реализован проект по улучшению здоровья, питания, водоснабжения, санитарии и гигиены подрастающего поколения.***



Соглашение с агентствами ООН подписали министерства народного образования и здравоохранения, а также Агентство по делам молодежи. Бюджет проекта – 3,5 миллиона долларов.

Программа охватит Кунградский, Бозатауский и Муйнакский районы. Здесь улучшат инфраструктуру водоснабжения, санитарии и гигиены в 20 медучреждениях и 15 школах, проведут саплементацию микронутриентами (дополнительный прием витаминов и минералов) учеников и повысят качество обучения ЗОЖ среди молодежи. В больницах установят телемедицинское и дополнительное лабораторное оборудование, усовершенствуют систему онлайн-обучения для медицинских работников.

## Успеть за четыре часа

***В республике планируется запуск проекта по ускоренному распознаванию инсульта.***



Программа «Церебра», созданная в Казахстане, благодаря искусственному интеллекту способна «узнать» болезнь в первые четыре часа. Национальная палата инновационного здравоохранения Узбекистана подписала меморандум о сотрудничестве с разработчиком системы – компанией Cerebra.ai. На первом этапе отечественные специалисты проанализируют работу «Церебры» в 7-й городской больнице Алматы (Казахстан).

Результатом внедрения проекта станет своевременное назначение пациенту незамедлительного лечения в период терапевтического «окна». Это, в свою очередь, позволит больному быстро вернуться к полноценной жизни.

## Уступи дорогу!

***В 2020 году в «Скорую помощь» поступило более трех миллионов неэкстренных вызовов.***




При этом из всех обращений зафиксировано 2,5 процента опозданий к больным. По мнению экспертов, это связано с тем, что в большинстве случаев машинам скорой медицинской помощи не уступают дорогу, адреса не указаны четко, нередки необоснованные и ложные вызовы.

Минздрав Узбекистана обратился к водителям с призывом обязательно пропускать автомобили службы «103», быть более внимательными и ответственными.

## Меньше соли, больше фруктов

***ВОЗ призвала страны обеспечить здоровое питание в школах, детсадах, больницах и домах престарелых. «Государственные средства не должны тратиться на нездоровую пищу», – заявил глава организации Тедрос Гебрейесус.***



По оценкам специалистов, сбалансированное питание в госучреждениях поможет спасти до восьми миллионов жизней ежегодно. Среди рекомендаций ВОЗ – снизить потребление соли и сахара, полностью исключить из рациона трансжиры, значительно увеличить количество овощей, фруктов, зерновых и бобовых культур, а также орехов. Это будет способствовать профилактике таких серьезных заболеваний, как диабет и рак.

МОЛОДО – НЕ ЗЕЛЕНО!



# ОТРЯД ДОБРОЙ ВОЛИ



**Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения... Чистые легкие, крепкий иммунитет на многие месяцы стали мечтой всего земного шара. Активные юноши и девушки в трудном 2020-м показали, как могут заботиться о родителях, бабушках и дедушках, вдруг попавших в группу риска.**

**А рассчитывать на заботу и внимание государства наша молодежь может всегда. Для нее – новые рабочие места, новые профессии, новые вузы. И масса возможностей проявить себя.**

**О роли подрастающего поколения в укреплении здоровья населения, о поддержке идей и инициатив говорят члены Ассоциации студентов-медиков Узбекистана.**

## Дыши, Узбекистан!



**Азам ЛАЗИЗОВ,**
**студент 6-го курса Ташкентского педиатрического медицинского института:**

– Воспоминания 2020-го не отпускают. Год был нелегким, однако будущие врачи проверку на прочность выдержали. Горжусь нашими ребятами, которые во время жесткого карантина в рамках проекта «Дыши, Узбекистан!» ездили по домам и устанавливали кислородные концентраторы. За бескорыстное служение людям студенты удостоены нагрудного знака «Мехр-саховат».

Теперь, когда обстановка нормализуется, мы возобновили программы по академическому обмену. Волонтерские организации, подобные нашей, есть во многих странах. Их объединяет Международная ассоциация студентов-медиков. В апреле запланирована отправка узбекистанских ребят в Барселону, а к нам приезжают представители из Латвии и Румынии. Разместят гостей в Ташкентском педиатрическом медицинском институте. Руководство ТашПМИ поддерживает молодежные инициативы. Именно благодаря этому в прошлом году мы смогли принять участие в крупном медицинском студенческом форуме, проходившем в Африке (1500 представителей из 150 стран). Делились опытом, отрабатывали навыки в процессе высокопрофессиональных тренингов. Обучение, которое я там прошел, дает право устраивать семинары для других волонтеров.

Недавно избран президентом Ассоциации студентов-медиков Узбекистана. Многое предстоит сделать. В частности, активизировать работу по основным направлениям. Ведь условия карантина не позволяли проводить широкомасштабные акции, разворачивать проекты с привлечением большого количества участников.

Укрепление здоровья населения – главная задача медицинских работников. Поэтому не будет лишним напоминать, как важна профилактика и какую роль играет ЗОЖ. К примеру, во время Всемирной недели рационального употребления антибиотиков проводили занятия в детских садах и школах, выступали в махаллях. Объясняли значение понятия «антибиотикорезистентность», то есть невосприимчивость микроорганизмов, вызывающих заболевание, к антибиотикам. Рассказывали, к чему приводит бесконтрольный прием препаратов и самолечение. Устраивали конкурсы в социальных сетях. Дети получали информацию в игровой форме, со взрослыми (ведь именно они зачастую проявляют самодеятельность) разговаривали по-взрослому.

Мы можем приглашать международных экспертов. Например, планируются встречи со специалистами из других стран по проблеме домашнего насилия.





## Карантин сделал нас сильнее

**Севинч КУРБАНОВА,**
**студентка 6-го курса ТашПМИ:**



*– Мечтаю связать жизнь с общественным здравоохранением. Те мероприятия, которые мы проводим, показали, насколько важно вовремя научить, предостеречь, посоветовать. И самое большое достижение – это шаги наших слушателей и зрителей к здоровью. Если хотя бы несколько мальчишек из класса, в котором запустили акцию против курения, не попробуют сигарету – маленькая, но значимая победа. А если они убедят во вреде табака своих друзей – победа вдвойне.*

*Мы провели большую кампанию по профилактике инфекционных заболеваний, знакомили школьников с микробами и вирусами. Не сомневаюсь, что дома ребята сами прочитали лекцию мамам и рассказали, кому дается право назначать лекарства.*

*Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения встретила с надеждой. Многое сейчас в руках юношей и девушек: им доверяют ответственные посты, серьезные проекты. Подрастающее поколение учится и трудится, реализует мечты, инициативы с заботой о будущем родной страны. Пандемия лишь подтвердила это. Карантин сделал нас сильнее. Начали быстро реагировать на проблемы, осознали, что успех рождается в сплоченной команде, в единстве действий.*

*От 2021 года ждем спокойствия в мире, инноваций в медицине, прогресса в образовании и здравоохранении.*

## Работать над собой



**Лаура БЕКМУЛЛИНА,**
**студентка 4-го курса ТашПМИ:**

– Хотя в нашей организации и существует разделение на комитеты, обособленности нет. Если проводится акция, в ней каждый принимает участие. Делаем общее дело.

Пандемия показала, что студенты готовы исполнить свой врачебный долг. Именно из них сформировался отряд добровольных помощников, вооруженных принципами Авиценны: «Паника – это половина болезни, спокойствие – это половина здоровья, терпение – это начало выздоровления». И то, что поддержка зачастую приходила именно от молодой смены медиков, дорогого стоит. Столкнувшись с общемировой проблемой, наше волонтерское сообщество будет еще активнее пропагандировать здоровый образ жизни.

Одна из важных задач – отучить граждан от самолечения. В аптеке без рецепта можно купить множество лекарств. Сколько пациентов таким образом «упустили» коронавирус! Когда ко мне обращаются знакомые с симптомами простудного заболевания, предупреждаю: никаких капельниц, антибиотиков. Сами себе можете назначить только обильное питье.

Нужно работать над собой. Соблюдать режим сна, правильно питаться, чаще проветривать помещение, больше двигаться. Хотя бы 15-минутная зарядка обязательна. Полезны пешие прогулки. Лучше потратить чуть больше времени и пройти несколько остановок, чем ехать в переполненном транспорте. Делаю около 20 тысяч шагов в день. Есть прекрасный способ заставить себя больше двигаться, причем в любую погоду. Завести собаку. И физическая, и моральная подзарядка.

Молодежь часами сидит за компьютерами или уткнувшись в телефоны. Нарушается кровообращение, что может привести к серьезным последствиям. И те, кто занимается часами напролет, рискуют здоровьем. Рекомендую фитнес-браслеты, напоминающие о разминке.

Мы много говорим о поддержке юношей и девушек на разных уровнях, но свое здоровье они должны поддерживать сами. Получив информацию о рациональной организации труда и отдыха, использовать ее по максимуму.

## Успех рождается в команде



**Жавахир ОХУНОВ,**
**студент 2-го курса Университета AKFA:**

*– Как поддержку молодежи воспринимаю создание новых высших учебных заведений, в том числе и частных. Руководство, которое откликается на студенческие инициативы, дает возможность интересно и с пользой организовать досуг. Спортивные соревнования, творческие вечера, поездки в горы стали неотъемлемой частью нашей жизни. Совмещаю руководство вузовской первичкой Союза молодежи с волонтерской деятельностью.*

*Ассоциация студентов-медиков, которая ведет работу по нескольким направлениям, также своеобразная форма поддержки юношей и девушек. У будущих специалистов есть возможность проявить себя, приобрести опыт санпросветработы, общения с разными возрастными группами.*

*Нам приходится говорить и о репродуктивном здоровье. До сих пор оно воспринимается частью общества как нечто данное каждому, само собой разумеющееся.*

*С помощью адаптированных лекций, наглядных пособий, тематических роликов, закрепляющих викторин формируем правильное отношение к ВИЧ-инфицированным, закладываем фундамент антистигмации в обществе.*




## Душевное тепло – тоже лекарство

**Шахзода ХОДЖАЕВА,**
**студентка 2-го курса Университета AKFA:**

– Я в ассоциации новичок. Влилась в сообщество достаточно легко благодаря консультациям и дружеской поддержке более опытных товарищей. Слышала о больших проектах, о работе с населением в период карантина. Мечтала проверить себя в деле.

Увидев в интернете рекомендации по правильному питанию с экзотическими фруктами, дорогостоящими продуктами, наш комитет «Общественное здравоохранение» загорелся идеей представить приемлемый вариант оздоровления. Тем более что точка зрения о ценности местных даров природы известна многим. То есть репа и морковь для узбекистанца гораздо полезнее, нежели авокадо и манго. Сейчас занимаемся разработкой данного проекта, который стартует в формате видеоконференции.

Посетили детское отделение онкологической клиники. Ведь из-за пандемии уменьшился поток благотворительности. Сразу встал вопрос: «Какие резервы у нас, студентов? Большими средствами не располагаем, но в состоянии сделать пребывание в стенах больницы комфортнее. Показать ребятам, что у них есть друзья. Ведь душевное тепло – это тоже лекарство».

Подробно расспросив о жизни отделения, узнали: здесь часто требуется менять постельное белье, колючие теплые одеяла действуют как раздражитель на и без того уязвимую детскую психику, во время химиотерапии ребенка желательно отвлекать приятным и полезным занятием. Не мешало бы пополнить игровую комнату. Что может хотя бы немного облегчить болезненную процедуру и убережет маленького пациента от резких движений? Пазлы, мозаика, раскраски, интересные яркие книги с удобным шрифтом.

Чтобы собрать необходимые средства, задумали провести в университете книжную ярмарку. В первый день принимаем издания от всех желающих, во второй продаем их после специального оформления. В ходе мероприятия рассказываем о детском раке, чтобы показать, насколько важна физическая и моральная поддержка юному пациенту.

В планах – мастер-классы по рукоделию. Будем учить тому, что умеем сами. И опять же вырученные средства направлять на благотворительность. Пусть это капля в море, но большое начинается с малого. А чувство, что ты нужен людям и приносишь пользу, тоже имеет оздоровительный эффект.



Записала Людмила ПОЛОНСКАЯ



НАСЛЕДИЕ

# Ляган цвета неба, или керамику – в каждый дом!



***Все оттенки изумрудно-бирюзового, синего и голубого – отличительный признак, по которому легко узнать творения знаменитых риштанских мастеров-кулолов. Кажется, словно само небо отразилось в этих пиалах, тарелках, вазах. Интересно, что вода в глиняных сосудах даже в сорокаградусную жару сохраняет прохладу и свежесть, а еда из керамических ляганов становится вкуснее.***

Гончарный промысел в Риштанском районе Ферганской области, расположенном вдоль маршрута древнего Шелкового пути, существует уже более восьми веков. Сегодня древние традиции бережно сохраняют свыше 20 старших мастеров и порядка семи тысяч их учеников.

Целые семьи занимаются росписью готовых изделий, один из ключевых элементов которых – глазурь «ишкор», придающая изумительно глубокий и сочный бирюзовый цвет.

«Глазурь получают из золы особой травы, – объясняет усто Алишер Назиров. – Благодаря этому узоры на посуде будто бы просвечивают из-под густой синевы. Еще один секрет риштанской керамики – превосходная, практически без примесей, местная красная глина.

Особым сакральным смыслом наполнен и каждый завиток в орнаменте. Рисунок в виде рыбок символизирует чистоту и богатство, гранат – пожелание изобилия и плодородия, миндаль означает удачу и счастье. Кстати, вот небольшой секрет, как выбрать качественную керамику: проведите по ней рукой (вся поверхность должна быть гладкой, без пузырьков) и слегка щелкните по изделию (должен раздаться звук дорогого фарфора). На дне мастер обязательно ставит клеймо».

Чтобы уникальные традиции не были утеряны, в прошлом году в Риштанском районе стартовала масштабная инвестиционная программа. Началось строительство Центра гончарного производства – ключевого звена всего проекта. Недавно состоялось торжественное открытие нового комплекса. На территории в 1,1 гектара расположены музей, выставочные галереи, отделение банка. Здесь возведено 20 домов, на первых этажах которых размещены мастерские и магазины, а на вторых проживают семьи мастеров. Также построены мини-гостиницы, рассчитанные на прием шести человек.

С открытием центра создано около 250 рабочих мест. Керамическая продукция экспортируется в Азербайджан, Казахстан, Кыргызстан, ОАЭ, Россию, Турцию, Чехию и другие страны.

В ходе состоявшегося на прошлой неделе визита в Ферганскую область новый комплекс посетил Президент Шавкат Мирзиёев. Глава государства осмотрел выставленные гончарные изделия и тепло побеседовал с мастерами.



> Мы возрождаем национальные традиции. Нужно популяризовать и керамику, нести ее в каждый дом. Кроме того, ее очень ценят за рубежом... Если в каждой семье будут такие изделия, они станут предметом национальной гордости и источником духовности.
>
> Шавкат МИРЗИЁЕВ

«Мы возрождаем национальные традиции. Нужно популяризовать и керамику, нести ее в каждый дом. Кроме того, ее очень ценят за рубежом... Если в каждой семье будут такие изделия, они станут предметом национальной гордости и источником духовности», – отметил руководитель страны.

Ответственным лицам дано указание предоставить гончарам оборотные средства и льготы, оказать содействие в открытии магазинов в других регионах, организовать выставочные и торговые стенды в посольствах нашей страны за рубежом.

Отмечено, что особую роль создание центра играет в воспитании молодого поколения мастеров, укреплении традиции «устоз – шогирд». Кроме того, это перспективное направление для развития туризма.

Пусть как можно больше людей узнает о глиняных чудесах, которые создают трудолюбивые руки риштанских кулолов! И пусть в каждом доме на видном месте хранится керамика цвета неба – красивая, качественная, экологически чистая.

**Лилия РУСАНОВА**







# BALOG'AT YOSHIDAGI BEBOSHLIKLAR

## o'smirning o'z "men"ini izlayotganidan darak

"Meni nimaga xunuk qilib tuqqansiz?.."
"Meni hech kim yoqtirmaydi..."
"Hech bir kiyim yarashmaydi..."
"Hech kim menga e'tibor bermaydi..."
"Got" bo'lsam, boshqalar qararmikan..."
"Sochimni kessam, o'rtoqlarim e'tibor berarmikan..."
"Hech kim menga yaxshi gapirmaydi..."
"Xuddi keraksiz matohga o'xshayman..."
"Meni hech kim eshitmaydi..."
"Ota-onam meni tushunmaydi..."

**(O'smirlardan olingan so'rovnomalarda keltirilgan fikrlardan)**

Bolalik va kattalik o'rtasida bir davr bor – o'smirlik. Ayni shu davr o'smirning o'zi uchun ham, ota-ona, o'qituvchi va hatto jamiyat uchun ham murakkab va o'ziga yarasha mas'uliyatli ekanligini yaxshi bilamiz. Yuqorida o'zidan qoniqmaslik tuyg'ulari zamonaviy o'smirlardan olingan so'rovnomalarda qayd etilgan. 1-3 va 7 yosh inqirozlari bolalik davrida ota-ona "hukmronligi" ostida o'tgani va bola bu davrlarda o'z qarashlarini to'liq aytib berolmagani uchun ijtimoiy muammo darajasiga ko'tarilmaydi. Biroq o'smirlik inqirozi bolaning fiziologik shakllanishi va o'zligini anglash, atrof-muhitda o'z o'rnini topishga bo'lgan intilishlar bilan qorishganligi uchun murakkab kechadi.

O'spirinlik inqirozi bola 12 yoshga to'lganidan boshlanadi va deyarli katta yoshga – 17-18 yoshga qadar davom etadi. Bu davrni iloji boricha "og'riqsiz" o'tkazish esa maktab bilan birga ota-ona hamda oila a'zolardan sabrli bo'lishni talab etadi.

O'smirda kuzatiladigan komplekslar: mag'rur, injiq, osonlikcha taslim bo'lish yoki aksincha, zaif, itoatsiz, tezda hafsalasi pir bo'lish, boshqarish qiyin, shoshilinch harakatlarga moyil va har doim kattalar bilan ziddiyatda bo'ladi. Chunki tuyg'ulari barqaror emas, doimo o'zgarib turadi, har kuni o'zlariga o'xshamaydigan belgilarni namoyon qiladi. Bu esa atrofdagilarni qiynaydi.

Xo'sh, bu muammoni qanday yechamiz, o'sib borayotgan bolaning xatti-harakatlarini qanday tushunish va to'g'ri talqin qilish mumkin?

Bu savollarga psixolog Shoira Isaqova shunday javob beradi:

– O'smirlik inqirozini yengish, zamon talablariga moslash, hayot jarayonida vasvasalar va xavfli to'siqlardan sevimli mashg'ulotlargacha bo'lgan oraliqda to'g'ri yo'lni tanlashi mumkinligiga ishonch hosil qilish judayam murakkab jarayon. Aynan shu davrda eng bema'ni harakatlar sodir etiladi va eng aql bovar qilmaydigan qarorlar qabul qilinadi, eng esda qolarli voqealar sodir bo'ladi. Kelajak uchun kasb tanlash, hayoti uchun zarur bo'lgan prinsiplar va ideallarni shakllantiradi. Olimlar o'smirlik inqirozining muhim xususiyatlaridan biri bu o'z-o'zini anglashi, ya'ni o'z "men"ini kashf etishini ta'kidlaydi. Rivojlanayotgan shaxs uchun o'zini o'zi, atrofdagi, jamiyatdagi ideallarini anglash, hayotda o'z o'rnini aniqlash istagi tabiiy holat, biroq biz, kattalar to'g'ri yo'naltirmasak, bola yomon yo'llarga kirib ketishi mumkin. O'smir o'zining kimligini, nimaga qodirligini tushunishni istagani uchun ham turli xil bema'nilik, hatto bezoriliklar bilan o'zini namoyon qiladi.

O'smirlikning "og'ir" o'tayotganini qanday bilamiz?

• O'smirlik inqirozining namoyon bo'lish belgilari – tez-tez yolg'iz qolishni istash. Faqat tashqi dunyodan uzilish, begona shovqin va shov-shuvlardan himoyalanish insonga o'zining ichki ovozini eshitish, o'zi bilan uyg'unlik va birlikni topish imkonini beradi. Shu sababli, o'spirinlikda sukut, yolg'izlik, beparvolik va uydan chiqib ketish istagi kabi xayollar paydo bo'ladi.

• O'smir maktabga bilim olish uchun emas, balki tengdoshlari bilan muloqot qilish uchun boradi. Agar u o'qishdagi muvaffaqiyati bilan tengdoshlarining e'tiborini jalb qilolmasa, u holda boshqacha yo'l tutishni boshlaydi: intizomni buzadi, dars qoldiradi yoki darsga kirmaydi. Uy vazifasini tayyorlamaydi. Bu yomon baholarning paydo bo'lishiga olib keladi.

• Ko'plab o'g'il-qizlar chekishni istaydi, odobsiz so'zlarni aytishga odatlanadi (o'g'il bolalar), hammadan boshqacha kiyinishni istaydi, kosmetik vositalardan foydalanadi, sochlarning rangini o'zgartiradi (qiz bolalar). Bularni o'zlari xohlagani uchun emas, balki bu o'z tengdoshlari orasida shunday qabul qilinganligi uchun qilishadi.

• Shubhalar davri, o'ziga ishonmaslik va hammadan kamchilik izlash o'smirning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

• Dangasalik tufayli oson vazifalarni ham bajarmasdan tanbeh eshitish hollari ko'p uchraydi.

Shu belgilar sezilganda eng to'g'ri yechim qo'pol bosim emas, muloyimlik bilan yo'naltirilgan tavsiya bo'lishi kerak. Esingizda bo'lsin, bu davrda o'spirin hissiy jihatdan mo'rt bo'lib, tanqidga va shaxsiy hayotiga aralashuvlarga toqat qilolmaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, musiqiy, badiiy, adabiy va texnikaga qobiliyati bor o'smirlar o'zini yetarli va to'g'ri baholaydi, ularda bu davr nisbatan yengil kechadi. Shuning uchun ham bolalikdan farzandimizni to'garaklarga, qiziqishiga qarab qo'shimcha mashg'ulotlarga yo'naltirish mana shunday muammolarning oldini oladi.

Balog'at yoshidagi farzandingizga haqiqatni aytishga va xolisona baholashga harakat qiling. Bolangizni xafa qilishdan qo'rqmang, adolatli tanqid har doim foydalidir, bu har qanday kishidan, hatto eng yoqimli xushomaddan ham yaxshiroqdir. Ammo "ma'ruza"lar bilan bolani ortiqcha bezdirmang. Esingizda bo'lsin, samimiy muloqot bolangizning osonroq ulg'ayishiga yordam beradi.

O'smirlik davrida bolani ehtiyotkorlik bilan kuzatish muhimdir, chunki bu davrda inson hayotidagi asosiy hissiy stressni boshdan kechiradi. Har qanday bosim "qarama-qarshi" tamoyil asosida uni faqat sizdan uzoqlashtiradi va teskari reaksiyaga sabab bo'ladi. Fikringizni zo'rlab singdirishga urinmang. O'smir o'zi qaror qabul qilishi kerak.

Qanday qilib farzandingizning do'stiga aylanishingiz mumkin?

– Unga ko'proq erkinlik va avvalambor, tanlov erkinligini bering. O'smirga ko'proq tanlovning muqobil shakllarini taqdim eting.

– Bola bilan oilaviy muhim masalalarni muhokama qiling, jarayonda qatnashishdan chetlashtirmang, u uning fikri hisobga olinishi va muhimligini his qilishi kerak.

– O'smir biron bir maslahatingiz yoki buyrug'ingizni qabul qilishi ham, unga amal qilmasligi ham mumkin. Itoatkorlik o'smir tushunchalariga zid narsadir. Shuning uchun bunday holatda stressni emas, boshqa maqul yo'lni izlaganingiz foydali bo'ladi.

– Bola bilan uning muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi sabablarini tahlil qiling.

– Biror bir natijaga erishganida rag'batlantiring.

– O'smirligingizdagi muammolar, sizni tashvishga solgan narsalar to'g'risida aytib bering.

– Psixologiya, o'zini o'zi anglash bo'yicha, motivatsiya beruvchi kitoblar sotib olib bering.

– Har doim shaxsiy o'rnak bo'ling (so'z bilan emas, balki amal bilan o'rgating).

– Farzandingizning do'stlari bilan, ularning vaqt o'tkazish usullari bilan tanishing.

**Nasiba ERXONOVA yozib oldi.**

TA'LIMDA ISLOHOTLAR

# ISH O'RINLARI TAKLIF ETILDI



***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2020-2021-o'quv yili bitiruvchilarini ishga joylashtirishni tashkil etish maqsadida "Yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi" shiori ostida ish beruvchi tashkilot vakillari bilan uchrashuv hamda bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi o'tkazildi.***



— Respublika oliy ta'lim muassasalari Milliy reytingida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 11-o'rinni egallagan, — deydi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi O'quv ishlari bo'yicha prorektori Ibrohim Usmonov. — Muassasamizda 1 ming 660 nafar o'g'il-qiz tahsil olmoqda. Akademiya talabalarining 30 nafari xorijiy davlat fuqarolari hisoblanadi. Ularga 162 nafar yetuk professor-o'qituvchilar saboq bermoqda. 2019-2020-yilda Akademiyani 142 nafar bakalavr, 69 nafar magistr talaba tamomlagan bo'lsa, bitiruvchilarni munosib ish o'rni bilan ta'minlash maqsadida bugungi kunda 100 dan ortiq ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalar bilan hamkorlik shartnomalari imzolaganmiz. Jumladan, talabalar respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalari, tashkilot va idoralarda amaliyot olib boryapti. Muassasamizda yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha zamonaviy, ilg'or innovatsion shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalashga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Tadbirda 30 dan ortiq ish beruvchi vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari 200 ga yaqin bo'sh ish o'rinlarini taqdim etdi. Yarmarkada O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi jamoasi, akademiyaning "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi", "Dinshunoslik" yo'nalishi bakalavriati talabalari, "Dinshunoslik", "Qiyosiy dinshunoslik", "Islom huquqi", "Hadisshunoslik", "Qur'onshunoslik", "Tarix (Islom sivilizatsiyasi)", "Aqida, kalom ilmi va aqidaviy ta'limotlar" yo'nalishlari magistratura bosqichi talabalari, jami — 234 nafar bitiruvchi ishtirok etdi.

Tadbirning ikkinchi qismida ish beruvchi tashkilot vakillari bilan talaba-yoshlar uchrashuvi o'tkazildi. Yoshlar o'zlarining ixtisosliklari bo'yicha mavjud bo'sh ish o'rinlari yuzasidan mutasaddilarga murojaat qilib, ish beruvchi tashkilot haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ldi.

Shuningdek, Akademiya faoliyati, ilmiy salohiyati hamda joriy yilgi bitiruvchilarining o'z mutaxassisliklari bo'yicha qay darajada bilim va ko'nikmaga ega bo'lganliklarini aniqlash maqsadida ish beruvchi tashkilot vakillari ishtirokida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. Tomonlar o'rtasida talabalarni ishga joylashtirish bo'yicha maqsadli kelishuvlarga erishildi.

— Hademay tahsilni tamomlayman. Qaysi idoraga ish so'rab borsam ekan, degan savol menga tinchlik bermayotgan edi, — deydi Akdemiyaning islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 4-kurs bitiruvchisi Azimjon Abdullayev. — Chunki bandlik dolzarb masalalardan biri. Bugungiday tadbirlarning tashkil etilishi yurtimizda biz, yoshlarga berilayotgan e'tibor va imkoniyatlarning yorqin na'munasidir. Yarmarka menga ham tengdoshlarim kabi o'zim orzu qilgan tashkilotda ish faoliyatimni boshlash imkonini berdi. Endi men oliy ta'limni tamomlab, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan mehnat shartnomamni tuzishim mumkin. Buning uchun tashkilotchilarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 million nafardan ziyodni tashkil etadi. Bu aholining qariyb 55–60 foizi demakdir. Shunday ekan, yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, ularning tashabbus hamda intilishlarini qo'llab-quvvatlash nafaqat bugunimiz, balki kelajagimiz ravnaqi uchun tashlanajak dadil qadamdir.

Eslatib o'tamiz, joriy yilning 17- hamda 20-fevral sanalarida Akademiyaning boshqa ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ham mehnat yarmarkalari bo'lib o'tadi.

**Iqbol PARDAYEVA**

# 2020-YIL: TA'LIM SIFATIDA O'SISH BORMI?

***Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ta'lim sifatini xolisona baholash bo'yicha o'tgan 2020-yilda amalga oshirilgan ishlar xususida ma'lumot berdi.***



2020-yilda maktablar reytingini aniqlash maqsadida jami maktablarning 10 foizi, ya'ni 992 ta maktab faoliyati 4 ta indikator asosida baholangan. Hududlar reytingida eng yuqori o'rinlarni Buxoro, Namangan va Xorazm viloyatlari egallagan. Quyi o'rinlarda esa Toshkent, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlari qayd etildi.

Prezidentning tegishli Farmoniga ko'ra, joriy yildan reyting natijalariga qarab maktab direktorlari va o'rinbosarlari, o'qituvchilar, hokimlar va ularning ta'lim bo'yicha maslahatchilari faoliyatiga baho beriladi. Bu jarayonga respublikadagi barcha maktablar qamrab olinadi.

2020-yilda 84 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyatining tahlilida ularning umumiy, sohaviy va asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida reyting tuzilgan. Milliy OTMlarda barcha indikatorlar bo'yicha o'sish ko'rsatkichlari qayd etilgan. Fan doktori yoki professor unvoniga ega o'qituvchilar 2020-yil 1-yanvarda o'tgan yilga qaraganda 11 foizga, fan nomzodi ilmiy darajasi yoki dotsent unvoniga ega professor o'qituvchilar 10,1 foizga, dissertatsiya himoyalari 41,1 foizga, dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMlardan ilmiy daraja olgan professor o'qituvchilar 13,1 foizga oshdi.

Ta'lim inspeksiyasi tomonidan 2030-yilgacha xalqaro reytinglarda 2 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 500 ta o'rindagi, 8 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish uchun "2+500" va "8+1000" loyihalari ishlab chiqilib, bu yo'nalishdagi amaliy ishlarga start berilgan.

Koronavirus pandemiyasi ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Va bu jarayonlar masofadan turib tashkil etildi. "ONAKS" — elektron platformasi hamda onlayn akkreditatsiya reestri ishga tushirildi.

Ichki va tashqi baholash jarayonlarida 788 ta maktab holati o'rganilgan. Natijada mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan 87 nafar rahbar xodimga intizomiy chora qo'llanilgan. Yil davomida jami 1 ming 220 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti attestatsiyadan o'tkazilgan. 1 nafar viloyat Maktabgacha ta'lim boshqarmasi, 1 nafar tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi, 12 nafar ta'lim tashkiloti rahbarlari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan. 9 nafar tuman maktabgacha ta'lim bo'limi xodimi, 1 nafar ta'lim tashkiloti rahbariga "hayfsan" intizomiy chorasi qo'llangan.

24 ta akademik litsey, 29 ta malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim tashkiloti hamda 22 ta oliy ta'lim muassasasi attestatsiyadan o'tkazgan. Natijalarga ko'ra, 54 ta malaka oshirish, 44 ta qayta tayyorlash kursi hamda 13 ta oliy ta'lim muassasasining 8 ta ta'lim yo'nalishi, 8 ta magistratura mutaxassisligi va 10 ta ixtisosligi attestatsiyadan o'ta olmagan.

Xorijiy davlatlarda olingan diplomlarni tan olish bo'yicha jami 4 ming 441 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 1 ming 361 tasi qanoatlantirilgan, 576 ta hujjat esa maxsus sinovlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri tan olingan. Pandemiya sabab sinov jarayonlari ilk marotaba viloyatlarda tashkil etilgan. Mazkur amaliyot tizimli ravishda takomillashtirilib, keyingi yillarda ham davom ettirilishi rejalashtirilgan.

So'nggi uch yilda nodavlat ta'lim tashkilotlari qariyb olti barobarga oshgan. 2020-yilda Ta'lim inspektsiyasi tomonidan jami 1 ming 34 ta nodavlat ta'lim tashkilotiga litsenziya berilgan. Bugungi kunda ularning soni 3 ming 377 tani tashkil qiladi.

Ta'lim inspeksiyasi va Jahon banki hamkorligida ta'lim sifatini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan sinovlar natijasiga asosan "Inson kapitali indeksi-2020" reytingida ilk marotaba O'zbekiston natijalari ham e'lon qilindi. Ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Finlandiya tajribasini o'rganish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

**Ro'ziqul OCHILOV**



## O'G'ILNING QILMISHI UCHUN
# ONA JAVOB BERDI

**Mirzo Abduqodir Bedil shunday yozadi:**

**"Avval g'ishtni qiyshiq qo'yarkan me'mor,
Yulduzga yetsa ham qiyshiqdir devor".**

Darhaqiqat, hech bir bola yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. U olgan tarbiyasi, o'zini o'rab turgan muhit sabab o'zgaradi. Agar farzandingiz yaxshi bo'lsa, u bilan doim faxrlanasiz, aksi bo'la-chi?..

Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani Jambul mahallasida yashaydigan yurtdoshimiz H.M. hali voyaga yetmagan o'g'lining huquqbuzarligi sabab javobgarlikka tortilishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan edi. Ammo onaning befarqligi unga qimmatga tushdi. Gap shundaki, "Yangiyo'l-Paxta" temir yo'l bekatlari oralig'ida 762-sonli "Toshkent-Buxoro" yo'nalishidagi tezyurar "Afrosiyob" poyezdiga 2014-yilda tug'ilgan U.S. muz bo'lagini otib, poyezdning oynasiga shikast yetkazgan. U.S.ning onasi o'z vaqtida farzandiga temir yo'lda ogoh bo'lish, transport vositalariga shikast yetkazmaslik, ko'cha-kuyda o'zini tutish borasida tarbiyaviy ishlarni yetarlicha olib bormagan.

Holat yuzasidan o'tkazilgan surishtiruv chog'ida bolaning voyaga yetmagani hamda yetkazilgan zarar miqdori jinoyat tarkibini bermagani sabab jinoyat ishi qo'zg'atilmadi. Ammo uning onasi H.M. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasi, ya'ni "Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik" bandi bilan javobgarlikka tortildi.

**Jahongir QO'CHQOROV,**
**Transportda XTBB TB surishtiruv bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik**

MOZIYDAN SADO









Biz o'tmish ajdodlarmiz ismini tilga olib haqli ravshda faxrlanamiz. Ammo doim ham ularning o'gitlariga quloq tutishga, o'tmishdan turib bizga yo'llagan vasiyatiga amal qilishga vaqt topmaymiz. Bugungi shiddatli globallashuv zamoni faqat o'zlikka qaytib, ajdodlar o'gitiga quloq tutib taraqqiyotga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Shu bois, jamoamiz bilan Siz, aziz yoshlar uchun xalqimizning tom ma'noda muallimi bo'lgan mutafakkir bobolarimizning bitiklarini ulashib borishni niyat qildik.

Quyidagi bitiklarni o'qib ko'rgach, taassuf bilan tan olasizki, bir asr narida aytilgan muammolar bugun ham unchalik o'zgarmagan, dolzarbligini yo'qotmagan!



**Abdulla AVLONIY**

# Tarbiyaning zamoni

Emdan ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulg'on kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan, tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur, degan savol keladur. Bu savolga birinchi — uy tarbiyasi — bu ona vazifasidur, ikkinchi — maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur, — deb javob bersak, bir kishi deyurki, "Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo'li to'qmoq onalarmi?" O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar?! — der. Mana bu so'z kishini ezar, bag'rini yondurur. Otasiga nima dersiz? — desak, "Qaysi ota! — To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmag'on, ilm uchun bir pulni ko'zlari qiymag'on, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qutmak, tarbiya qilmak lozimdur", der. Mana bu so'zlarni eshitgach, umid qo'llari qo'ltuqg'a urilur.

— Xayr, bo'lmasa, muallimlar-chi?! — desak, Qaysi muallim? Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qumag'on, usuli ta'lim ko'rmog'on muallimlarni aytursizmi? Avval o'zlari dorulmuallimlarda o'qumaklari, so'ngra dars bermaklari lozumdur", der. Mana bu so'z insonni hayrat daryosiga g'arq qilur.

Mudarrislarga na dersiz desak, "Qaysi mudarris? — matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislarni aytursizmi? Bular o'z vazifalarini bilub nafslaridan kechub, zamonaga muvofiq ravishda darslarini isloh qilub, imtihon birla o'qutmaqlari lozimdur", der. Mana bu so'z har kimni "Alisloh" demakka majbur qilur. Bo'lmasa, hukumat-chi? — desak, "Xayr, hukumat hammaning otasidur, o'z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmagi lozim". Shuning uchun bizning Rusiya hukumati o'gay bo'lsak ham har yerda bizlar uchun ham maktablar ochub, bolalarimizni tekin o'qutur. Lekin o'zimiz ish bilmag'on, yalqov, uyda ona tarbiyasi, otadan pul tarbiyasi, muallimdai axloq tarbiyasi, mudarrisdan funun tarbiyasi ko'rmagonimizdan, hukumat maktablaridan ham o'z hissalarimizni ololmaymiz", der. Mana bu so'z bizlarni tarbiyadan mahrum, huquqning na ekanini bilmaganlig'imizni bildurur.

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur...

*Agar bir qushning yosh bolasin olib,*
*Bo'lur tarbiyat birla yo'lga solib.*
*Onasin olib asrag'on birla rom*
*Qilolmas, kishi sa'y qilsa mudom.*
*Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,*
*Ulug' bo'lsa, lozim kelur g'am yemak.*
*Egur bemashaqqat kishi navdani,*
*To'g'unchi egur kuydirib kardani.*

# Axloq tarbiyasi

Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki, dars oluvchi — biluvchi, tarbiya oluvchi — amal qiluvchi demaktur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga omil bo'lub, shogirdlarga ham berg'on darslarini amal ila choqushturub o'rgatmaklari lozimdur. Bu ravish ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo'lurlar... Agar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lub, amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'ladur...

Bayt

*Minbar uzra jilva aylab, va'z etarlar, qilma, deb,*
*O'zlarin xilvatda ko'rsang, oni qilmoqda emish.*
*Ichma suv, derlar biza oltun-kumush asbobda*
*Bilsamiz maqsudlari qo'ltuqga urmoqda emish.*

# Fikr tarbiyasi

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelg'on, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklang'on muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng darajada muhtoj durki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimni tarbiyasiga bog'lidur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg'on, birining vujudi biriga boylang'on jon ila tan kabidur. Masalan, joy solinmag'on yaxshi bir uyning ichida o'turmak mumkin o'lmadig'i kabi, ichiga har xil yangi ashyolar to'ldurub ziynatlang'on eski imorat ham o'lturushga yaramaydur. Basharti o'lturulsa, insonlar: "Eski uyga yangi zoldevor", "Kir ko'ylakka jun jiyak", "Mis qozonga loy tuvoq" kabi hajv, kulgi qilurlar.

*Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,*
*Xanjar olmosdan bo'lur o'tkur.*
*Fikring oyinasi olursa zang,*
*Ruhi ravshanzamir o'lur benur.*

# Yaxshi xulqlar

Bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo'lg'on yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazri ibrat, iffat, xayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur. Mana shu yozdig'imiz, yaxshi xulqlar aql va shar'i sharifga muvofiq... Emdi bu yaxshi xulqlarni qo'lga olmak uchun ota-ona, muallim-ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasixatlarini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirda tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lmak, axoqi buzuq, yomon kishilardan qochmak lozimdur...

Bayt

*Yaxshi birla yursa har kim,maqsudi hosil bo'lur,*
*Yursa nodonlar ila bir kun borib qotil bo'lur.*
*Kattalar qilg'on nasihatni kichiklar olmasa,*
*Oqibat xulqi buzuq, bir beadab johil bo'lur.*

"Toshkent oqshomi" kitobidan.

**Sahifani Boboravshan G'oziddinov tayyorladi.**

# NAVOIY VA TIBBIYOT



***O'rta Osiyoda XV-XVI asrlarda tibbiyotning rivojlanishi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Navoiy o'zi tabib bo'lmasa ham, tibbiyotning rivojlanishida juda katta rol o'ynadi hamda ulug' insonparvar olim va davlat arbobi sifatida mamlakatda sog'liqni saqlash ishlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.***

Navoiyning tashabbusi bilan mamlakatda 300 dan ortiq turli madaniy-maishiy binolar, kasalxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar barpo etildi. Ayniqsa, o'sha vaqtda poytaxt Hirotda juda ko'p qurilish ishlari amalga oshirilgan.

Navoiyning tibbiyot, tabiblar va salomatlikni saqlash haqidagi fikr va mulohazalari uning mashhur "Mahbub ul-qulub" kitobida bayon etilgan. Kitobda bu masalaga maxsus bob bag'ishlangan.

Navoiy o'z asarlarida salomatlikni saqlash va bunda tabiblarning roli haqida fikr yuritar ekan, avvalo tabibning o'zi qanday odam bo'lishi kerak, degan masalaga to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, tabib birinchi galda o'z kasbini yaxshi egallagan mohir mutaxassis bo'lishi lozim, u rahm-shafqatli, insonparvar bo'lishi kerak. Tabib donishmandlarning maslahat va tavsiyalariga amal qilishi lozim. U yoqimtoy, dilkash, xushmuomala, kamtarin bo'lishi darkor. Tajribasiz, chalasavod, nodon tabibni Navoiy jallodga o'xshatadi.

Navoiy salomatlik va xastalik haqida so'z yuritar ekan, sharob masalasiga to'xtalib o'tadi. Sharobni u zaharga qiyos qiladi va ichkilikbozlikka berilish kishi tanasining zaiflashib, kasallikka chalinishiga sabab bo'ladi, deydi. Bundan tashqari, Navoiy boshqa zararli odatlardan (nashavandlik, qoradori iste'mol qilish, shahvoniy ishga berilish va hokazo) ham saqlanishni tavsiya etadi. Salomatlikni saqlash borasida Navoiy birinchi o'ringa to'g'ri va sifatli ovqatlanishni qo'yadi.

Navoiy Movarounnahrning barcha shaharlaridan eng tajribali tabiblarni poytaxtga taklif etgan. Navoiy ko'rsatmasi bilan kasalxonaga asosan kambag'al, nochor bemorlar qabul qilingan. Davolash bepul bo'lgan. Bundan tashqari, kambag'al, beva-bechoralarga issiq ovqat tarqatilgan...

Tarixchi Xondamirning yozishicha, kasalxonalarda davolash ishlari va talabalarni o'qitish sifati yuksak darajada bo'lgan. Mudarrislar qatorida mohir jarrohlar ham bo'lgan. Shulardan biri Shayx Husayn edi. Ma'lumotlarga ko'ra, u shu qadar mohir bo'lganki, bir vaqt o'n sakkiz joydan pichoq yegan navkarning jarohatlarni muvaffaqiyatli tikib, uni sog'aytirib yuborgan...

**Nuriddin EGAMOV tayyorladi.**

TENGDOSHLAR IJODIDAN

## Navoiyning tug'ilishi

*Oti yer tepindi G'iyosiddinning,*
*Eriga talpindi ojiza ayol.*
*– Dard tutdi, sohibim, yaqinroq keling!*
*Tashqarida esa chinqirar shamol.*

*– Tez doyaga yugur – Titradi ovoz*
*Vahima, xavotir iskanjasida.*
*– Qadam tovushi bu – doya, quloq os,*
*Onasi chidagin, jon, biroz chida.*

*Tokchada to'lg'onar sham, sho'ring qurg'ur,*
*Qobig'in buzolmas falakka o'rlab.*
*– Dardiga bir malham bordir, izlab ko'r –*
*Shamol to'rt tomonga ketdi izillab.*

*Shamol to'rt tomonga ketdi izillab,*
*Tinmasdan aylandi yakkamixda ot.*
*Shirin orzusini tushlarga ulab,*
*Uxlab yotar edi osuda Hirot.*

*Es-hushidan ozib qayta va qayta,*
*Kumush bisotini sochganida qish.*
*Shamol chinqirig'i bo'lingan joyda*
*Tug'ildi... tug'ildi buyuk evrilish!*

*(Dahoning onasi daho ulug'vor,*
*Chinga aylantirdi, axir ro'yoni).*
*Go'dak yig'isiga aylanib ilk bor,*
*Navoiy uyg'otdi butun dunyoni.*

**Bahodir BAHROM**

# Tarix qa'ridagi nur

KO'RGAZMA



O'zbekiston Badiiy akademiyasining Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyida buyuk mutafakkir, so'z mulkining sultoni, davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan "Tarix qa'ridagi nur" nomli ko'rgazma ochildi.

Alisher Navoiy yashab, ijod qilgan davrda kitobat san'atining noyob namunalari yaratilgan. Kitobat san'ati ustalari hukmdorlar va boshqa amaldorlarning buyurtmasi asosida, ayni asarlar g'oyat nafis bezaklar, miniatyuralar bilan ziynatlangan. O'rta Sharq va Movarounnahrda uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tgan kitobat san'atining takomillashishi bevosita adabiyot bilan bog'liq bo'lib, nafaqat badiiy-g'oyaviy jihatdan, balki ifoda xususiyatlari jihatidan ham o'zaro uyg'unlashib ketgan.

Miniatyura va xattotlik asarlaridan tashkil topgan "Tarix qa'ridagi nur" ko'rgazmasidan O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi, O'zbekiston "Hunarmand" uyushmasi a'zolari – Bahodir Xadjimetov, Kamol Mirzayev, Kamol Abdullayev, Xayriddin Muxiddinov, Koship Amanov, Zokir Xakimov, Mirhamid Mirsagatov, Komil Omonov, Saida Jalilova, Sardor Mahkamov, Ulug'bek Orifjonov, Baxtiyor Dedashev, Behzod Juraboyev kabi ijodkorlarning asarlari o'rin oldi. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'qituvchisi, rassom-animator Nigora Haydarovaning animatsion ijod namunasi taqdim etildi.

**Hasan ABDUNAZAROV**



# QANDAY OZIQ-OVQATLAR O'LIM XAVFINI KUCHAYTISHI ANIQLANDI

**Donni qayta ishlab (tozalab) tayyorlangan oziq-ovqat ko'p iste'mol qilinsa, tozalanmaganidan tayyorlangan mahsulotga qaraganda ko'proq yurak-qon tomiri kasalliklari va o'lim xavfini oshiradi.**

**Bu boradagi tadqiqotlar natijasi "BMJ" jurnalida e'lon qilindi.**

Sayyoramiz aholisining, qariyb, 50 foizi kunlik kaloriyani donli mahsulot, masalan suli, guruch, arpa yoki bug'doydan tayyorlangan oziq-ovqat hisobiga to'ldiradi.

Tozalanmagan donli mahsulot tozalanganiga nisbatan tarkibida ko'proq vitamin, mineral va o'rnini hech narsa bilan bosib bo'lmaydigan yog' kislotasini saqlaydi.

Turli mamlakatlar olimlari tozalangan don, yuz foiz dondan tayyorlangan oziq ovqat va oq guruchning yurak-qon tomirlari kasalliklari va o'lim holatiga qanchalik aloqasi borligini aniqlash uchun yirik loyihaga qo'l urishdi. Tadqiqot besh qit'aning 21 mamlakatida turli daromad ko'rsatkichiga ega aholi orasida olib borilgan. Tajriba uchun shu vaqtgacha yurak-qon tomirlari kasalligi bilan og'rimagan 35-70 yosh orasidagi 137 ming 130 kishi tanlab olingan.

Natija shuni ko'rsatdiki, kuniga 350 gramm yoki yetti hissa tozalangan don mahsuloti iste'mol qilgan kishida kuniga 50 gramdan oz tozalangan don mahsuloti tanovul etgan odamga nisbatan o'lim ehtimoli 27 foiz yuqori chiqqan. Qolaversa, ularning yurak bilan bog'liq xastalikka chalinishi ehtimoli ham 33 foiz farqlangan. Tozalangan don mahsulotidan tayyorlangan oziq-ovqatni ko'p yeyish qon bosimini ham oshirar ekan.

Mazkur tadqiqot ilk bor tozalangan dondan tayyorlangan ovqat yurak uchun zararli ekanini hamda yashab qolish imkoniyatini pasaytirishini ko'rsatdi. Ta'kidlanishicha, faqat tozalangan oq guruch bundan mustasno.

# 53 yil avval yo'qolgan hamyon topildi

**AQShning Kaliforniya shtatida yashovchi Pol Grisham bundan yarim asrdan ziyod vaqt oldin tushirib qo'ygan qopchig'ini topishga muvaffaq bo'ldi. Bu xabarni "The San Diego Union-Tribune" nashri tarqatgan.**



Hikoya qilishicha, u bir vaqtlar AQSh Harbiy dengiz kuchlari safida meteorologiya xizmatida ishlagan. 1967-yili Antarktikada xizmat o'tayotgan chog'i tasodifan hamyonini yo'qotgan va topa olmagan.

O'tgan yil oxirida Grishamga meteorologiya xizmati xodimining qizidan qo'ng'iroq bo'ldi. Juvonning aytishicha, otasining boshlig'i notanish qopchiq egasini aniqlashda yordam berishni so'ragan. Topilma bino buzilganda aniqlangan.

Voqeadan bir necha hafta o'tib, hamyon egasiga qaytarilgan. Omadli insonning ta'kidlashicha, hamyon ichida haydovchilik guvohnomasi, soliq to'g'risidagi deklaratsiya, harbiy dengiz xizmatchisi shaxsini tasdiqlovchi hujjat va cho'ntak ma'lumotnoma xaritasi bus-butun saqlangan.

**O'zA**

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prozidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB – Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR: Jamshid MUSURMONOV
DIZAYNER Zafar RO'ZIYEV

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TAHRIRIYAT MANZILI: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefonlar: (78) 150-22-74, (71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-255
Adadi – 785
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.02

1 2 3 4 5 6